



2024 yil 09 oktabrda
№2023-3/2-son bilan
TASDIQLANGAN

“OFB Mobile” mobil ilovasi orqali jismoniy shaxslarga masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi OMMAVIY OFERTA

Ushbu hujjat “Orient Finans” XATB (keyingi o’rinlarda – Bank) tomonidan “OFB Mobile” mobil ilovasi orqali jismoniy shaxslarga masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi Sharhnomalar tuzish taklifi - ommaviy ofertasi (keyingi o’rinlarda – Oferta/Shartnoma) hisoblanadi.

1.

ATAMALAR VA TA’RIFLAR

1.1.

Ushbu Ommaviy oferta maqsadlari uchun quyidagi atamalar va ta’riflar qo’llaniladi:

ABT – Bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi;

Avtorizatsiya – Foydalanuvchini mobil ilovadan chegaralangan tartibda foydalanish imkonini berish maqsadida OTP (bir martalik parol) so’rovini yuborish orqali Foydalanuvchining huquqlarini tekshirish;

Avtorizatsiyadan o’tgan foydalanuvchi – “OFB Mobile” tizimida cheklangan amaliyotlarni amalga oshirish huquqiga ega, identifikatsiyadan o’tmagan “OFB Mobile” Foydalanuvchisi;

Autentifikatsiya – Foydalanuvchini, Bankning ma’lumotlar bazasida Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan avtorizatsiya parametrlariga muvofiqligini tekshirish;

Bank – “Orient Finans” XATB Bosh ofisi va uning bo’linmalari;

Bank kartasi – Bank, shuningdek, O’zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banklari tomonidan chiqarilgan “UZCARD”, “HUMO” milliy to’lov tizimi hamda “VISA”, “MASTER CARD” va/yoki ChinaUnionPay xalqaro to’lov tizimlarining bank plastik kartalari;

Verifikasiya – Sharhnomalar bo'yicha bank operatsiyalari va boshqa harakatlarni amalga oshirish uchun Bankga “OFB Mobile” orqali murojat qilgan Foydalanuvchining shaxsini tasdiqlash.

Ishonchli qurilma – Foydalanuvchining, “OFB Mobile” ilovasi o’rnatalgan mobil qurilmasi va Foydalanuvchi tomonidan mazkur qurilmada yaratilgan Maxfiy kod. Ishonchli qurilma yordamida Foydalanuvchi quyidagi amaliyotlarni amalga oshirishi mumkin:

- “OFB Mobile” ilovasida yaratilgan Maxfiy kod orqali operatsiyalar va xarakatlarni amalga oshirish bo'yicha Elektron hujjalarni;

Masofaviy bank xizmatlari (MBX) – Foydalanuvchi tomonidan telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda masofadan uzatiladigan elektron topshiriqlar asosida taqdim qilinadigan Bank xizmatlari majmui;

Mijoz / Identifikatsiyadan o’tgan foydalanuvchi – identifikatsiyadan o’tgan va “OFB Mobile” ilovasi orqali taqdim qilinadigan barcha Bank xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega Foydalanuvchi;

Identifikatsiya – Foydalanuvchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, Foydalanuvchi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar, ochiq manbalar va ma‘lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar asosida tekshirish;

Identifikatsiya parametrlari – Foydalanuvchi autentifikatsiya orqali “OFB Mobile” ilovasidan foydalanish uchun tizimda ro‘yxatdan o‘tkazgan login va paroli;

To‘lovlar tarixi – Foydalanuvchi tomonidan “OFB Mobile” ilovasi orqali amalga oshirgan barcha operatsiyalar harakati elektron aksi. To‘lovlar tarixidan olingan ko‘chirma yetarli dalil hisoblanadi va Bank va Foydalanuvchi tomonidan Foydalanuvchining Tizimlardagi hararakatlari to‘g‘risidagi ma‘lumot sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Kvitansiya – “OFB Mobile” mobil ilovasi orqali elektron shaklda pul mablag‘larining qabul qilinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma;

Komprometatsiya - autentifikatsiya paytida Foydalanuvchi tomonidan taqdim etiladigan (kiritiladigan) ma‘lumotlarning ishonchliligini yo‘qotish;

Login – Foydalanuvchi tomonidan “OFB Mobile”ga kirish uchun identifikator sifatida foydalaniladigan Foydalanuvchining mobil telefon raqami;

Parol – Foydalanuvchi tomonidan o‘rnatilgan, u tomonidan mobil ilovaga kirish uchun identifikator sifatida foydalaniladigan belgilarning maxfiy ketma-ketligi;

“OFB Mobile” mobil ilovasi – onlayn rejimda bank operatsiyalarini amalga oshirish, hisobvaraqlar holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va boshqa ma‘lumotlarni olish uchun mo‘ljallangan, mobil texnologiyalar asosida yaratilgan maxsus dasturiy ta‘minot. Foydalanuvchi mobil ilovani mobil qurilmaga mos keladigan rasmiy manbadan yuklab olish orqali foydalanishi mumkun.

Shaxsga doir ma‘lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga taaluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot;

Shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berish – shaxsga doir ma‘lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish bo‘yicha bir harakatni yoki harakatlar majmuuni amalga oshirish;

Amaliyat ish kuni - bu Foydalanuvchining pul mablag‘larini kreditlash, hisobdan chiqarish, o‘tkazish va boshqa operatsiyalar va operatsiyalar bo‘yicha operatsiyalar qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan vaqt.

Topshiriqnomा – Tizimda mavjud bo‘lgan xizmat turlaridan foydalanish maqsadida Foydalanuvchi tomonidan yuborilgan elektron hujjat shaklida qayd etilgan harakat;

Foydalanuvchi - tizimda avtorizatsiyadan yoki identifikatsiyadan o‘tgan va “OFB Mobile” ilovasidan foydalanuvchi jismoniy shaxs.

Foydalanuvchi maqomi – “OFB Mobile” Foydalanuvchisi tomonidan mobil ilovada amaliyotlar amalga oshirish uchun tanlangan maqomi. Foydalanuvchi Avtorizatsiyadan o‘tgan yoki Identifikatsiyadan o‘tgan maqomga ega bo‘lishi mumkun.

Ro‘yxatdan o‘tish – Foydalanuvchining “OFB Mobile”ga ulanishi va Foydalanuvchi tomonidan Ommaviy ofertani qabul qilish dalilini aniqlash/tasdiqlash imkonini beruvchi identifikatsiya ma‘lumotlarini taqdim etish bo‘yicha harakati. Ro‘yxatga olish tartibi Bank tomonidan belgilanadi;

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari (keyingi o'rnlarda – **rezidentlar**) – bu O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shu jumladan chet elda yashovchi, O'zbekiston Respublikasi hududida yashash huquqiga ega bo'lgan chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar.

Maxfiy kod – bu faqat Foydalanuvchiga ma'lum bo'lib, Foydalanuvchi tomonidan o'zining mobil qurilmasida "OFB Mobile" ilovasida Verifikatsiya va Autentifikatsiya muvoffaqiyatlari o'tgandan so'ng yaratiladigan (4 dan 8 tagacha bo'lgan belgi, belgili yoki raqamli-harfli, yoki belgilardan tashkil topgan) doimiy maxfiy kod.

Hisobraqam – Mijozning Bankda milliy va xorijiy valyutada ochilgan, uning topshirig'i bilan, shuningdek "OFB Mobile"dan foydalangan holda Mijoz tomonidan amalga oshirilgan operasiyalar aks ettiriladigan bank hisobraqami (talab qilib olinguncha depozit hisob, maxsus karta hisobraqami, muddatli depozit/omonat hisobraqami, ssuda hisobraqami);

Maxsus karta hisobraqami – bank kartasi orqali pul mablag'larining tasarruf etilishi amalga oshiriladigan va Foydalanuchi tomonidan uning topshirig'iga muvofiq masofaviy bank xizmati orqali amalga oshirilgan operasiyalar aks ettiriladigan bank hisobraqami;

Tizimlar – Foydalanuvchilarga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi Bankning dasturiy majmuasi;

Bank tariflari – Bank tomonidan tasdiqlangan va ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan va tegishli operatsiya amalga oshirilishi vaqtida amalda bo'lgan Bank komissiyasining miqdori;

Uchinchi shaxslar – Bank va Foydalanuvchidan tashqari barcha boshqa shaxslar;

Xizmatlar – Mijoz tomonidan Tizimlarda amalga oshirshi mumkin bo'lgan bank operasiyalarini bajarish imkonini beruvchi Masofaviy bank tizimlaridan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar.

Elektron hujjat – elektron shaklda taqdim etilgan va elektron to'lovni amalga oshirish uchun zarur ma'lumotlarga ega bo'lgan axborot;

Elektron to'lov – Mijozning topshirig'i bilan Tizimda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish;

Elektron pochta – doimiy, faqat Foydalanuvchiga ma'lum bo'lgan, parolni tiklash yoki Foydalanuvchini Bank tomonidan xabardor qilish uchun Foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda o'zining mobil qurilmasi orqali "OFB Mobile" ilovasida bir martalik parol bilan qo'shilgan va tasdiqlangan muvaffaqiyatli tekshiruvdan so'ng va Autentifikatsiya.

Face ID - mobil qurilmaga o'rnatilgan shaxs yuzining hajm-fazoviy shaklini skaner qilish orqali Foydalanuvchini identifikatsiya qilish funksiyasi;

NFC (Near field communication) – bu simsiz qisqa masofada qurilmalar orasida ma'lumotlar almashish imkonini beruvchi yuqori chastotali aloqa texnologiyasi.

OTP (one time password) – Bank tomonidan ishlab chiqarilgan va Foydalanuvchiga SMS-xabar shaklida Foydalanuvchining mobil telefon raqami va/yoki elektron pochta manziliga yuboriladigan maxsus bir martalik o'zgaruvchan kod. OTP-kod SMS-xabar sifatida taqdim etiladi va operasiyaning turiga qarab Foydalanuvchining bank kartasi biriktirilgan mobil telefon raqamiga yoki «OFB Mobile»da ro'yxatdan o'tgan Foydalanuvchining mobil telefon raqamiga yuboriladi. Foydalanuvchining bir martalik o'zgaruvchan kodni qo'llashi,

Foydalanuvchi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq qo'lida yozilgan imzolardan foydalanishga o'xshash huquqiy oqibatlarini yaratishi natijasida amalga oshirgan barcha harakatlari muhokama qilinmaydi va Foydalanuvchi tomonidan shaxsan sodir etilgan deb e'tirof etiladi.

Push-xabarnoma – Foydalanuvchining mobil qurilmasiga, Bank tomonidan yoki Bank tashabbusi bilan Foydalanuvchining mobil qurilmasi dasturiy ta'minoti tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan tegishli protokollar asosida yuboriladigan xabar;

QR-kod – bu o'tkazmani amalga oshirish rekvtzlari to'g'risidagi ma'lumotlarni grafik tasvir ko'rinishida kodlaydigan matritsali kod.

Touch ID – mobil qurilmaga o'rnatilgan barmoq izi skaneri orqali mijozlarni identifikasiya qilish funksiyasi;

2.

UMUMIY QOIDALAR

2.1.

Foydalanuvchiga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Markaziy bankning normativ hujjatlari, Bankning ichki me'yoriy hujjatlari va ushbu Shartnoma/OferTaga muvofiq amalga oshiriladi.

2.2.

Shartnoma Bank tomonidan Foydalanuvchiga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish shartlari va tartibini belgilaydi.

2.3.

Bank va Foydalanuvchi o'rtasida Shartnomaning tuzilishi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358,360,367 va 370-moddalariga muvofiq Foydalanuvchining Shartnomaga to'liq qo'shilishi yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.4.

Foydalanuvchi, yoki Foydalanuvchining ishonchli qurilmasi orqali Foydalanuvchining ruxsati yoki ruxsatsiz Uchinchi shaxs tomonidan "OFB Mobile" ilovasi orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

2.5.

Taraflar, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382 moddasi 1-xatboshisiga muvofiq Bank bir tomonlama Shartnomaga o'zgartirish kiritishga haqliligin kelishishdi. Shu bilan birga, Shartnomaning yangi tahriri Bankning veb-saytida e'lon qilingan sanadan Bank tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar Taraflar uchun majburiyligi belgilandi.

2.6.

Foydalanuvchi Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini, shuningdek, "OFB Mobile" dan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga taqdim qilmasligi lozim.

2.7.

Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar uchun Bank komissiyasining miqdori ushbu Shartnomaga xizmat ko'rsatish va/yoki operatsiyani bajarish sanasida Bankda amal qiladigan tariflarga muvofiq belgilanadi. Tariflar bank veb-saytining "Tariflar va hujjatlar" bo'limida joylashtirilgan.

2.8.

Taraflar kelishilgan aloqa kanallari orqali mazkur Shartnomada belgilangan tartibda Foydalanuvchi nomidan yuborilgan Topshiriqlarni Bank tomonidan olinishini, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan aynan shunday mazmundagi yozma shaklida Mijoz imzolagan qog'oz ko'rinishidagi hujjatni Bank tomonidan olinishi kabi teng ekanligini tasdiqlaydilar.

2.9.

Foydalanuvchi internetga kirish va "OFB Mobile"ga ularish uchun zarur bo'lgan texnik, dasturiy va aloqa resurslari bilan mustaqil ravishda va o'z hisobidan ta'minlaydi.

- 2.10.** Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha ular tomonidan axborotni qayta ishlash, himoya qilish va uzatish uchun ishlataladigan tizimlar ishonchli, samarali va xavfsiz ishlashi hamda ruxsatsiz kirishdan himoya qilish, shuningdek, Elektron hujjatning haqiqiyligini tasdiqlash uchun yetarli ekanligini tan olishadi.
- 2.11.** Bank Foydalanuvchi tomonidan Shartnomaning buzilishi bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar, yo'qotishlar va boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 2.12.** Ushbu bilan, Foydalanuvchi Tizimdan foydalanishda mazkur Shartnomada ko'rsatilgan shartlarga amal qilinmagan taqdirda, uning Hisobraqamlariga ruxsatsiz kirish xatari yuzaga kelishi mumkinligi haqida xabardor qilindi.
- 2.13.** Foydalanuvchi, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini Bank va uning hamkor o'tasida ma'lumotlar maxfiyligi va konfiedensialligi to'g'risida shartnoma imzolangan bo'lsa, Bank tomonidan qisman yoki to'liq shaklda uchinchi shaxslasrga taqdim qilishga o'z vakolati va ruxsatini quyidagilar uchun beradi:
- 2.13.1.** Foydalanuvchiga Bank xizmatidan foydalanish va/yoki ayrim bank xaizmatlari va mahsulotlarini rasmiylashtirishga (foydalanishga) jalb qilish maqsadida;
- 2.13.2.** Bank tomonidan foydalanidigan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va (yoki) takomillashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish va (yoki) ishlarni bajarish, bunday dasturiy ta'minotni o'rnatish va uni texnik qo'llab quvvatlash bo'yicha xizmatlar va (yoki) Bankga konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- 2.13.3.** Bank ishtirokida tegishli aksiyalar (sovg'ali tadbirlar) yoki boshqa rag'batlantiruvchi tadbirlarni o'tkazishda, Foydalanuvchiga bonus birikmalarini hisobga olish/ to'lovlarni amalga oshirish/ rag'batlantirishni ta'minlash maqsadida;
- 2.14.** Foydalanuvchini Shartnomaga qo'shilishi, mobil ilova Avtorizatsiyasidan muvaffaqiyatl o'tishi bilan amalga oshiriladi.
- 2.15.** Akseptlangan ushbu Ommaviy oferta qog'ozdag (yozma shakldagi) Shartnomaga tenglashtirilgan bo'lib, yozma shakldagi Shartnoma bilan bir xil yuridik kuchga ega. Ommaviy oferta, shuningdek ushbu Ommaviy oferta/Shartnoma doirasida Mobil ilovadan foydalanilganda shakkantiriladigan hujjatlar to'liq yuridik kuchga ega bo'lib, ularga muhr qo'yish va/yoki o'z qo'li bilan imzolash talab qilinmaydi.

3.

SHARTNOMA PREDMETI

- 3.1.** Bank Foydalanuvchiga ushbu Shartnoma doirasida, uning Foydalanuvchilik maqomiga muvofiq bank xizmat turlari va mahsulotlaridan foydalanish huquqini taqdim qiladi.
- 3.2.** Ommaviy ofertani akseptlash orqali, Foydalanuvchi Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun tariflar bo'yichi komissiya Bank tomonidan ushlab qolinishiga roziliginibildiradi. Komissiya miqdori Foydalanuvchining qo'shimcha ko'rsatmalarisiz ushlab qolinadi.

4.

FOYDALANUVCHINI RO'YXATDAN O'TKAZISH VA OMMAVIY OFFERTANI AKSEPTLASH

- 4.1.** Mobil ilovaga kirish Foydalanuvchining tegishli operatsion tizimdag (Android va iOS) mobil qurilmasiga Mobil ilovani yuklab olish va o'rnatish orqali ta'minlanadi. Mobil ilovani Apple Store va Play Market ilovalari

- do'konlari va Bankning rasmiy (korporativ) sayti www.ofb.uz. dan yuklab olish mumkin.
- 4.2.** Ro'yxatdan o'tish uchun Foydalanuvchi quyidagi ketma-ketlikdagi harakatlarni bajarishi lozim:
- a. Mobil ilovani AppStore va PlayMarket ilova do'konlarida va Bankning rasmiy (korporativ) sayti www.ofb.uz. dan yuklab olish va mobil qurilmaga o'rnatishi lozim;
 - b. "OFB Mobile"/shaxsiy kabinetga kirish uchun ro'yxatga olishning tegishli katakchasiga Foydalanuvchi identifikasiyalashda foydalanish uchun mobil telefon raqamini kiritish;
 - c. SMS xabar orqali olingan Nazorat (OTP) kodini kiritish;
 - d. Ommaviy oferta/Shartnoma shartlari bilan tanishish va tegishli bandni tanlash orqali Ommaviy oferta/Shartnoma shartlariga roziligini tasdiqlash;
 - e. talab bo'yicha parolni (belgilar soni 8 tadan 20 tagacha bo'lgan, kamida 1 dona lotin harfi, 1 dona bosh harf, 1 dona raqam va 1 dona belgidan tashkil topgan), va tezkor autentifikatsiya uchun Touch ID, Face ID va kodni o'rnatadi.
- 4.3.** ushbu Shartnoma shartlariga o'z roziligini bildirishi bilan, Foydalanuvchi so'zsiz va qarshiliksiz quyidagilarni qabul qiladi va tasdiqlaydi:
- a. Bankning tariflar va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq tartibi va shartlarni istisno va qo'shimcha shartlarsiz Ommaviy oferta/ Shartnoma shartlari bilan butunlay va to'liq tanishib chiqganligi va qabul qilganligini tasdiqlaydi;
 - b. Bank Tariflari bilan tanishib chiqib ularga roziligini bildiradi va tan oladi;
 - c. Bank bilan shartnoma tuzishga qonuniy huquqi borligi va huquqiy/muomila layoqatiga ega ekanligini tasdiqlaydi;
 - d. Ushbu Ommaviy oferta shartlari bilan rozi bo'lish oqibatida, mobil ilovadan foydalanish qoidalari va uning natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar to'liq tushunarli, Ommaviy oferta va ularga amal qilish majburiyigini tan oladi;
 - e. Ro'yxatdan o'tish vaqtida aniq, haqoniy va to'liq ma'lumotlarni ko'rsatgani;
 - f. Mobil ilovani foydalanishda xavfsizlik bo'yicha tavsiyalar, shuningdek Taraflarning huquq, majburiyat va javobgarliklari bilan to'liq tanishtirilganligini;
 - g. Bank xizmatlari taqdim qilinishi maqsadida uyali aloqa vositasi raqamini aloqa operatoriga taqdim qilishga o'zining roziligini beradi;
 - h. Nizolar va kelishmovchiliklar kelib chiqqanida Bank tomonidan ushbu Ommaviy oferta shartlariga murojaat qilish huquqini beradi;
 - i. Bank tomonidan ushbu Ommaviy ofertani isbot sifatida sud va boshqa davlat organlari va tashkilotlarda qo'llashga o'z roziligini bildiradi;
- 4.4.** Foydalanuvchi tomonidan Login va Parolni o'rnatilganligi, Foydalanuvching "OFB Mobile"da muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tganligini bildiradi.
- 4.5.** Ro'yxatdan o'tish jarayonini muvaffaqiyatli o'tgan Foydalanuvchi, Avtorizatsiyidan o'tgan deb hisoblanadi.
- 4.6.** Avtorizatsiyidan o'tgan Foydalanuvchi "OFB Mobile" xizmatlaridan foydalanishda cheklangan huquqga ega bo'ladi.
- 4.7.** "OFB Mobile" xizmatlaridan to'liq foydalanish uchun Foydalanuvchi Identifikatsiyadan o'tishi lozim.

5. IDENTIFIKATSIYA, AUTENTIFIKATSIYA VA VERIFIKATSIYADAN O'TISH TARTIBI

- 5.1. Masofaviy identifikatsiya O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Norezident jismoniy shaxslarning masofadan identifikatsiyadan o'tishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 5.2. Foydalanuvchining Identifikatsiyadan o'tishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi.
- 5.2.1. Foydalanuvchi tomonidan shaxsni tasdiqllovchi hujjat seriyasi va raqami, hamda tug'ilgan sanasi kiritilgandan so'ng, shaxsga doir biometrik ma'lumotni olish maqsadida, Foydalanuvchining Ishonchli qurilmasida o'rnatilgan "OFB Mobile" ilovasida, Foydalanuvchi yuzining foto tasviri olish oynasi ochiladi.
- 5.3. Bank Foydalanuvchini quyidagi tartibda Autentifikatsiyadan o'tkazadi:
- 5.3.1. Foydalanuvchi tomonidan aloqa vositasi raqami kiritilgandan so'ng, mazkur aloqa vositasi raqamiga OTP (bir martalik parol) xabari keladi;
- 5.3.2. Foydalanuvchi yuzining biometriyasi Face ID/Touch ID texnologiyalari asosida (keyingi o'rnlarda Foydalanuvchining Touch ID/Face ID Autentifikatsiyasi);
- 5.3.3. Maxfiy kod asosida.
- 5.4. Bank Foydalanuvchini quyidagi tartibda Verifikatsiyadan o'tkazadi:
- 5.4.1. Maxfiy kod/"OFB Mobile" kodi asosida;
- 5.4.2. Touch ID / Face ID texnologiyasi asosida.
- 5.5. Foydalanuvchi tomonidan "OFB Mobile" xizmatlaridan foydalanish maqsadida kiritilgan maxfiy kod / "OFB Mobile" kodi Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan va Bank ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan maxfiy kod / "OFB Mobile" kodi teng bo'lsa, Foydalanuvchi verifikatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi.

XIZMAT KO'RSATISHNING ASOSIY SHARTLARI

- 6.1. Bank Foydalanuvchiga quyidagi shartlar amalga oshirilgan taqdirda xizmat ko'rsatadi:
- a. Foydalanuvchi "OFB Mobile" mobil ilovasidan muvaffaqiyatli ro'yxatdan so'ng;
- b. Pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalar amalga oshirish uchun hisobraqamlarda yetarli mablag'lar mavjudligida;
- c. Bank tomonidan ba'zi operatiyalar uchun belgilangan cheklowlarga amal qilgan taqdirda;
- d. Foydalanuvchi tomonindan Bank taqdim qilayotgan xizmat turlari (agar shunday xizmat amalga oshirilgan bo'lsa) uchun Bank tarifiga muvofiq komissiya to'lovlari amalga oshirganda.
- e. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hisobraqamlar bo'yicha operatsiyalar amalga oshirishda taqilalar mavjud bo'limganda.
- f. Bank tomonidan xizmat ko'rsatish uchun texnik imkoniyatlarning mavjudligi.
- g. Muayyan operatsiyalar uchun belgilangan boshqa shartlar.
- 6.2. Identifikatsiyadan o'tmagan Foydalanuvchilar uchun "OFB Mobile" mobil ilovasi orqali Bank xizmatlarining chegaralangan soni taqdim qilinadi. Identifikatsiyadan o'tmagan Foydalanuvchilar uchun taqdim qilinadigan xizmat turlari Bank tomonidan belgilanadi.

- 6.3.** Bank tomonidan taqdim qilinadigan xizmatlardan Foydalanuvchi Tizimning ish rejimiga muvofiq foydalanadi. Pul mablag'larini o'tkazish Bank, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi boshqa tijorat banklari tomonidan chiqarilgan milliy valyutadagi Bank kartalariga amalga oshiriladi.
- 6.4.** Bank Foydalanuvchi tomonidan Tizim orqali amalga oshiradigan pul o'tkazmalarining maksimal miqdori bo'yicha cheklovlar o'rnatishi mumkin. O'rnatilgan limitlar to'g'risida ma'lumotlarni Foydalanuvchi Tizim orqali pul mablag'larini o'tkazish jarayonida olishi mumkin.
- 6.5.** Bank Foydalanuvchidan bank xizmatlari taqdim qilinayotganda verifikatsiyadan o'tishni quyidagi xolatlarda talab qilishi mumkin:
- 6.5.1.** Bank tomonidan Foydalanuvchi tomonidan maxfiy kod kiritilgan mobil qurilmaning ishonhliliga shubha tug'ilsa;
- 6.5.2.** Bank tomonidan Foydalanuvchini Identifikatsiyadan o'tkazish jarayonida, Foydalanuvchi tomonidan Bankga tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinguniga qadar, taqdim qilingan hujjat, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, yoki Foydalanuvchi to'g'risida boshqa ma'lumotlar ishonchliligi, aniqliliqi va haqiqiyligiga Bankda shubha tug'ulsa;
- 6.5.3.** Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiya jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni (legallashtirish) va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilayotganiga shubha (gumon) paydo bo'lsa;
- 6.5.4.** Foydalanuvchiga yoki uning faoliyatiga nisbatan jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralar qo'llanilganda;
- 6.5.5.** Omonatni muddatidan oldin tugatish/ qisman yechish amaliyotlarini amalga oshirish;
- 6.5.6.** Pul mablag'larini boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlarga o'tkazishda, (Bankdagi shaxsiy hisobvaraqlar bundan mustasno);
- 6.5.7.** Foydalanuvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga muvofiq shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish, yashash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek familiyasi, ismi va otasining ismi (agar mavjud bo'lsa), tug'ilgan sanasi va joyi, fuqaroligi, ro'yxatdan o'tgan mamlakati, ro'yxatdan o'tgan manzili to'g'risidagi shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish to'g'risida ariza bergenida;
- 6.5.8.** Uyali aloqa vositasining raqami va / yoki Kod so'zi o'zgartirilganda.
- 6.6.** Bank Foydalanuvchiga quyidagi holatlarda bank xizmatlarini taqdim qilishni bir tomonlama rad qilishi mumkin:
- a.** agar operatsiyalar miqdori va soni parametrlari bo'yicha Bank va / yoki amaldagi qonunchilik tomonidan cheklovlar belgilangan bo'lsa;
- b.** Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar o'zida shuhbali, gumonli, noqonuniy operatsiyalarini mujassam etsa yoki Bank uchun obro'-e'tibor va/yoki moliyaviy xatarlar mavjud bo'lsa;
- c.** Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda;
- d.** Agar Foydalanuvchi Shartnomaning 6.5.-bandida nazarda tutilgan shartlarni buzsa.

- 6.7.** Bank Topshiriqnomani qabul qilmaydi va quyidagi holatlarda xizmatlarni amalga oshirmaydi, agar:
- a.** To'lov operatsiyasini amalga oshirish jarayonida Foydalanuvchining bank kartasida xizmat ko'rsatish va/yoki komissiya to'lash uchun yetaricha mablag' mavjud bo'lmaganda;
 - b.** To'lov operatsiyasi miqdori o'rnatilgan limitdan oshganda;
 - c.** To'lov operatsiyasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq shubhali va gumanli operatsiyalar qatoriga kirsa.
- 6.8.** Qabul qiluvchi-banki va/yoki Yuboruvchi-banki tomonidan komissiya to'lovlari sifatida ushlab qoligan pul mablag'lari uchun Bank javobgar hisoblanmaydi.
- 6.9.** Bank operatsiyani Bank kartasi orqali amalga oshirish uchun ruxsat olgan hamda Xizmat ko'rsatish uchun Bank harakatlarni bajargan taqdirda, Bank tomonidan pul o'tkazmalari bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan hisoblanadi.
- 6.10.** Shartnoma kuchga kirgandan keyin xizmatlar parametrlarini tasdiqlashdan oldin Foydalanuvchi istalgan vaqtida xizmatlardan foydalanishni rad etish imkoniyatiga ega.
- 6.11.** Foydalanuvchi kartalari va boshqa tijorat banklarining kartalaridan pul mablag'larini o'tkazishda qo'shimcha komissiyalar undirilishi mumkinligini qabul qiladi va o'z roziliginibildiradi. Qayd etib o'tilgan holatlar bo'yicha ushbu Shartnomaga muvofiq Xizmatlar to'liq ko'rsatilgan deb hisoblanadi, Foydalanuvchi bunday komissiyani oluvchi bilan keyingi munosabatlarni mustaqil ravishda tartibga soladi.
- 6.12.** Chet el valyutasini sotib olish va sotish kurslari Bank tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilanadi. Operatsion kun davomida chet el valyutasini sotib olish va sotish kursi o'zgarishi mumkin.

7.

FOYDALANISH TAQIQLANGAN USULLARI

- 7.1.** Foydalanuvchi Bankning oldindan yozma rozilagini olmagan holda "OFB Mobile" mobil ilovasiga biron-bir o'zgartirish kiritish, undan biron-bir tijorat maqsadida foydalanish, o'zgartirish, nusxa olish, dekompilyasiya qilish yoki boshqacha tarzda dasturning manba kodini olishga urinishi mumkin emas.
- 7.2.** "OFB Mobile" mobil ilovasining yaxlitligini buzish, himoya tizimlarini buzish, shuningdek, bankning "OFB Mobile" mobil ilovasiga bo'lgan mutloq huquqini buzadigan boshqa xatti-harakatlar Foydalanuvchini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq fuqarolik, ma'muriy yoki jinoiy javobgarligiga olib keladi.

8.

TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- Bank quyidagi majburiyatlarga ega:
- 8.1.1.** Ushbu Shartnoma va amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan hajm va muddatda xizmatlarni lozim darajada ko'rsatish;
- 8.1.2.** Foydalanuvchining ushbu Shartnoma va amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan topshirig'ini ijroga qabul qilish;
- 8.1.3.** Ushbu ommaviy oferta/Shartnoma matnini Bankning korporativ veb-sayti va/yoki Bank ofislariga joylashtirish;

- 8.1.4.** Foydalanuvchi operasiyalari bo'yicha va Foydalanuvchi to'g'risidagi bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlarni saqlash;
- 8.1.5.** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan hollarda Foydalanuvchining "OFB Mobile"dan foydalanishi bilan bog'liq operasiyalar va Foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar Bank tomonidan uchinchi shaxslarga taqdim etilishi mumkin;
- 8.1.6.** Uchinchi shaxslar tomonidan Foydalanuvchining hisobraqamlari va "OFB Mobile"da amalga oshirgan operasiyalar haqidagi ma'lumotlarni ruxsatsiz qo'lga kiritilishini oldini olish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va texnik choralar ko'rish;
- 8.1.7.** Shaxsiy ma'lumotlarning yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarning konfidensialligini ta'minlash va shaxsiy ma'lumotlarga noqonuniy ishlov berilishini oldini olish.
- 8.2.** Foydalanuvchi quyidagi majburiyatlarga ega:
- 8.2.1.** Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq, yoki Bank uchun obro'ga putur yetkazish va/yoki moliyaviy xatarlarga sabab bo'luvchi operasiyalarni amalga oshirmaslik;
- 8.2.2.** Mazkur Shartnoma doirasida tadbirkorlik faoliyatini olib borish bilan bog'liq operasiyalarni amalga oshirmaslik;
- 8.2.3.** Mazkur Shartnomaga qo'shilishdan avval Shartnoma shartlari va Bank tariflari bilan o'z vaqtida va to'liq hajmda tanishib chiqish;
- 8.2.4.** "OFB Mobile"dan foydalanishda mazkur Shartnoma shartlariga amal qilish;
- 8.2.5.** Xizmatdan foydalanishdan avval bunday xizmatlarni ko'rsatishda Bank tomonidan belgilangan cheklovlarni tanishib chiqish;
- 8.2.6.** Xizmat ko'rsatilganligi uchun Bank tariflari belgilangan komission haqni (agar nazarda tutilgan bo'lsa) to'lash;
- 8.2.7.** Mobil ilova ishlatilayotgan qurilmaning axborot xavfsizligini mustaqil ravishda ta'minlash;
- 8.2.8.** Login va parolni oshkor qilmaslik, shuningdek Bank tomonidan axborot taqdim etiladigan nazorat kodi va aloqa vositalaridan uchinchi shaxslar foydalanishiga yo'l qo'ymaslik;
- 8.2.9.** Xizmat ko'rsatilishi maqsadida topshiriqnomalar rasmiylashtirilayotganda, Bank tomonidan so'ralayotgan ma'lumotlarning haqiqiyisini taqdim qilish;
- 8.2.10.** Foydalanuvchi, mobil qurilmasi, mobil aloqa vositasi raqami yo'qotilganda, Foydalanuvchining "OFB Mobile"da ro'yxatdan o'tgan ma'lumotlari komprometatsiya qilinishiga shubha uyg'onganda, yoki komprometatsiya qilinganda, shuningdek hisobraqamlariga ruxsatsiz kirish va hisobraqamlaridagi mablag'lar yechib olinganda, Bank Kontakt-markaziga darxol qo'ng'iroq qilish. Shu o'rinda yuqorida qayd etib o'tilgan holatlar yuzga kelganda, Bank Foydalanuvchining yo'qotishlari uchun javobgar hisoblanmaydi;
- 8.2.11.** Amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni Bankning talabi binoan taqdim etish;
- 8.2.12.** Shaxsiy ma'lumotlar o'zgargan taqdirda bu haqida bankni darhol ogohlantirish (F.I.Sh., Foydalanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar, manzil va boshqalar) o'zgarganda darhol yangilash;
- 8.2.13.** Bank ofislari, bankning korporativ veb-sayti, bankning ijtimoiy tarmoqlardagi yoki tizimlardagi rasmiy sahifalarida, "OFB Mobile"

- xizmatlaridagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar mavjudligini muntazam ravishda tekshirib borish;
- 8.2.14.** Internet yoki aloqa vositalari orqali uzatilgan ma'lumotlarni nushalanishi(komprometasiya) ehtimoli bilan bog'liq xatolarni o'z bo'yninga olish;
- 8.2.15.** Ushbu Sharhnomaga amal qilmaslik oqibatida Bankga yetkazilgan zararni qoplash, shuningdek Bank tomonidan Foydalanuvchining topshirig'i bajarilganligi uchun Bankning amaldagi tariflariga asosan komissiyalarni ushlab qolishni, Foydalanuvchi Bankga hisobraqamlaridan pul mablag'larini yechib olish orqali amalga oshirish huquqini beradi;
- 8.2.16.** "OFB Mobile" mobil ilovasi ekranida ko'rsatilgan ma'lumotlarni diqqat bilan o'rganish, taklif qilingan misollar asosida xohishga muvofiq harakatlarni amalga oshirish va kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riliгини diqqat bilan tekshirish;
- 8.2.17.** Mobil ilovaga biriktirilgan plastik kartalar orqali har qanday operatsiyalarni amalga oshirish yoki plastik kartalarni boshqa mobil ilovaga biriktirish, SMS-xabar xizmatini yoqish va kartada foydalanishda, shuningdek mobil ilovaga kirish huquqini olish uchun yuboriladigan bir martalik tasdiqlovchi SMS-kod va/yoki Nazorat kodlarini uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik.
- 8.3.** Bank quyidagi huquqlarga ega:
- 8.3.1.** Foydalanuvchiga, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va/yoki ushbu Sharhnomaga asosan, shuningdek agar xizmat ko'rsatish bilan bog'liq harakatlar amalga oshirilayotganda Foydalanuvchi tomonidan noanaiq ma'lumotlar taqdim qilinganligi ma'lum bo'lganida yoki ushbu Ommaviy ofertaning 6.5. bandida qayd etib o'tilgan Verifikatsiya shartlari buzilganida, yuqorida qayd etib o'tilgan holatlar yuzasidan xizmat ko'rsatishni rad etishga haqli;
- 8.3.2.** Bank tomonidan ushbu Ommaviy ofertani tugatish to'g'risida tegishli qaror qabul qilinib, ushbu qaror Bankning veb-saytida joylashtirilgan kundan 10 bank ish kuni o'tgach, Bank bir tomonlama ushbu Sharhnomasi asosida xizmat ko'rsatishni to'xtatishga haqli;
- 8.3.3.** Foydalanuvchining shaxsiy va/yoki aloqa ma'lumotlariga kiruvchi xarqanday axborotlarga ishlov berish;
- 8.3.4.** Texnik sabablar yoki "OFB Mobile" mobil ilovasidan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi boshqa holatlar yuzaga kelganda, "OFB Mobile" mobil ilovasidan foydalanishni bir tomonlama noma'lum muddatga to'xtatib qo'yish. Shu o'rinda Bank Foydalanuvchini vujudga kelgan uzilish (nosozliklar) va ularni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan muddatlar to'g'risida ma'lumotlarni Bank ofislari, Bank korporativ veb-saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoki tizimlarda joylashtiradi;
- 8.3.5.** Foydalanuvchining hisobraqamlariga ruxsatsiz kirish yoki kirishga urinish to'g'risida yetaricha ma'lumotlar bo'lganda, vaqtincha Foydalanuvchini ogohlantirmasi "OFB Mobile" mobil ilovasiga kirishni to'xtatib qo'yish;
- 8.3.6.** Bank tariflarida komissiya miqdori kamaytirilganda (Foydalanuvchi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida), Bank bunday o'zgarishlarni Tariflarga kiritilgan o'zgarishlar kuchga kirish kunidan, keyingi bank ish kunidan kechiktirmasi Foydalanuvchini xabardor qilmagan holda bir tomonlama qabul qilishga haqli;

- 8.3.7.** Foydalanuvchining hisobraqamiga(lariga) yanglilihish holatida kirim qilingan pul mablag'larini Foydalanuvchining hisobraqamidan ruxsatsiz yechib olish;
- 8.3.8.** Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollari tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq Foydalanuvchiga xizmat ko'rsatishni yoki operatsiyalar amalga oshirishni rad etish, Foydalanuvchi operatsiyalarini to'xtatib qo'yish, Foydalanuvchidan axbarot, ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim qilishni ta'lab qilish.
- 8.4.** Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:
- 8.4.1.** Bank ofislari, bankning korporativ veb-sayti, bankning rasmiy ijtimoiy tarmoqlari yoki tizimlarida ommaviy oferta/Shartnomaning joriy tahriri bilan tanishib chiqish;
- 8.4.2.** Foydalanuvchi "OFB Mobile"dan ushbu Shartnoma talablariga muvofiq o'z xohishiga ko'ra istalgan vaqtida, haftasida 7 (yetti) kun va bir kunda 24 soat tamoyili asosida foydalanishi va bank operatsiyalari amalga oshirishi mumkin;
- 8.4.3.** Bankdan, Foydalanuvchi tomonidan "OFB Mobile"da bank operasiyalarni amalga oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etilishini talab qilish;
- 8.4.4.** Bank tomonidan taqdim etilayotgan qo'shimcha xizmatlarni ulash va foydalanish;
- 8.4.5.** Xizmat ko'rsatilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan kechiktirmagan muddatda ko'rsatilgan xizmat sifati bo'yicha Bankka shikoyat yo'llash;
- 8.4.6.** Bankning Kontakt-markazi yoki istalgan Bank bo'limida Masofaviy bank xizmati yuzasidan savollar bo'yicha maslahatlar olish;
- 8.4.7.** Xizmatga kirish huquqini yopgan holda mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilish. Bunda xizmat yordamida ochilgan omonat hisobraqamlarida saqlanayotgan mablag'lar omonat shartlari yoki omonatni muddatdan avval bekor qilish shartlariga muvofiq mazkur omonat hisobraqami ochilgan Bank bo'linmasi tomonidan qaytariladi.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 9.1.** Ushbu Ommaviy oferta/Shartnoma va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun javobgar hisoblanishadi.
- 9.2.** Foydalanuvchi mobil ilova orqali amalga oshirayotgan bank operasiyalarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi uchun javobgar hisoblanadi.
- 9.3.** Bank Foydalanuvchi hisobraqamlariga pul mablag'larini to'g'ri kirim qilish va undan chiqarish uchun javobgar hisoblanadi.
- 9.4.** Foydalanuvchi mustaqil ravishda o'zining nomidan (login, parol, SMS-kod va h.k. qo'llagan holda) "OFB Mobile"da amalga oshirilgan operatsiyalar uchun javobgar hisoblanadi.
- 9.5.** Foydalanuvchi tarmoqlardan foydalanishi himoya qilinmagan, yoki zarar keltiruvchi programma va ilovalar o'rnatilgan mobil qurilmaga kiritgan o'zining shaxsga doir ma'lumotlarining ximoyasi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

- 9.6.** Ommaviy oferta/Shartnoma shartlari lozim darajada bajarilmaganda, agar shartlarning lozim darajada bajarilmasligi Bank nazorati tizimi ostidan kelib chiqmagan bo'lsa Bank javobgar hisoblanmaydi. Bank nazorat tizimi mobil ilovaning ishchanligi bilan chegaralanadi, va uchinchi shaxslar sababli yuzaga kelgan uzilishlar, yoki davlat organlari tomonidan qo'laniqan chegaralanishlar uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 9.7.** Bank barcha mobil telefon modellarida xizmatdan foydalanish imkoniyatini mavjudligini kafolatlamaydi va mijozning mobil telefon apparati va dasturiy ta'minotining xususiyatlari bilan bog'liq sabablarga ko'ra xizmatdan foydalana olmasligi uchun javobgar bo'lmaydi.
- 9.8.** Bank boshqa banklar va/yoki boshqa shaxslarning aybi bilan mablag'lar oluvchining bank kartasiga yoki oluvchining bank rekvizitlari bo'yicha muddat va talablar buzilgan holda kirim qilinganligi uchun javobgar bo'lmaydi.
- 9.9.** Bank Foydalanuvchi tomonidan xizmat parametrlarini yoki pul o'tkazmasini oluvchining rekvizitlarini kiritish paytida topshiriqni rasmiylashtirishda yo'l qo'yilgan xatolar uchun javobgar bo'lmaydi. Bu hollarda xizmatlar Bank tomonidan mijozga lozim darajada va Shartnomaga muvofiq tarzda ko'rsatilgan hisoblanadi va Foydalanuvchi xizmat ko'rsatish natijasida hisob raqamiga pul mablag'i kelib tushgan jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan keyingi o'zaro hisob kitoblarni mustaqil ravishda (Bank ishtirokisiz) hal etadi.
- 9.10.** Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:
- 9.10.1.** Foydalanuvchining aybi tufayli uning hisobraqamlari va/yoki o'tkazilgan operasiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga oshkor bo'lib qolsa;
- 9.10.2.** Foydalanuvchi tomonidan "OFB Mobile"dan foydalangan holda noto'g'ri to'lov amalga oshirilsa;
- 9.10.3.** Bankka bog'liq bo'Imagan holatlar natijasida "OFB Mobile"ga kirish imkoniyati mavjud bo'Imagan taqdirda;
- 9.10.4.** "OFB mobile" mobil ilovasida Foydalanuvchi tomonidan bevaqt yoki noto'g'ri harakatlar amalga oshirishi natijasida, agar bunday harakatlar noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish orqali va/yoki Bankni Foydalanuvchining shaxsga doir ma'lumotlari, shuningdek mobil aloqa vositasi raqami o'zgarganligi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilinmagan bo'lsa, buning oqibatida xizmat ko'rsatish to'xtatilishi va bank sirini tashkil etuvchi ma'lumot oshkor qilinishi mumkin;
- 9.10.5.** Bankning aybisiz, Foydalanuvchining Login, Parol, SMS-kod va boshqa ma'lumotlari e'lon qilinishi oqibatida zarar yetkazilganda;
- 9.10.6.** Foydalanuvchi ma'lumotlari nushalangan va/yoki uning ruxsatisiz "OFB Mobile" dan foydalilanligi to'g'risida Bankni o'z vaqtida ogohlantirmasligi oqibatida;
- 9.10.7.** Aloqa liniyalarining sifati va texnik holati;
- 9.10.8.** Xizmatdan foydalanish uchun Foydalanuvchi foydalanadigan mobil telefon va(yoki) dasturiy ta'minotning ishlash sifati uchun;
- 9.10.9.** Mobil aloqa operatorlari va Internet provayderlari tarmoqlarida sodir bo'ladigan kechikishlar va nosozliklar sababli SMS-xabarlarini kechiktirish/yetkazmaslik yoki Internet tizimlaridagi uzilishlar vujudga kelishi;
- 9.10.10.** Foydalanuvchining texnik qurilmasida zararli viruslar paydo bo'lishi, texnik qurilma ishlash jarayonida xatoliklar kelibchiqishi oqibatida Foydalanuvchi ko'rgan zararlar uchun javobgar emas;

- 9.10.11.** Qonunchilikdagi o'zgarishlar sababli Bank tomonidan Sharhnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajaraolmaslik;
- 9.10.12.** Agar "OFB Mobile" dan foydalanish jarayonida Foydalanuvchining hisobvaraq'idagi operasiyalari haqidagi ma'lumotlar, Bankning aybisiz uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lib qolganida;
- 9.10.13.** Bankga taalluqli bo'limgan sabablarga ko'ra qurilma va/yoki ilovaning ishslash jarayonida xatoliklar va nosozliklar yuzaga kelganda;
- 9.10.14.** Foydalanuvchining mobil telefoniga, kompyuteriga yoki mobil ilovadan foydalanish imkonini beruvchi boshqa qurilmaga ruxsatsiz kirish bilan bog'liq, shu jumladan, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari natijasida mijoz tomonidan ko'rilgan zararlar uchun;
- 9.10.15.** Foydalanuvchining quyidagi holatlar natijasida ko'rgan zarari uchun:
- a.** Foydalanuvchi yoki uchinchi shaxslar tomonidan "OFB Mobile"dan foydalanish imkonini taqdim qiluvchi mobil telefon, kompyuter yoki boshqa qurilmaning dasturiy ta'minotiga o'zgartirish kiritish, shuningdek, yuqorida qayd etib o'tilgan qurilamalarda virus va boshqa zarar keltiruvchi dasturlarlar mavjudligi sabab;
 - b.** Foydalanuvchi tomonidan mazkur Sharhnomalar shartlari, mobil ilovadan foydalanish tavsiyalarini, shuningdek boshqa xavfsizlik choralarini buzganligi;
- 9.11.** Bank tomonidan Texnik nosozliklar (aloqa va elektr tarmoqlari o'chirilishi/ zarar yetkazilishi, dasturiy ta'minotdagi uzlishlar va protsessing markazi va Bank ma'lumotlar bazasida rejalashtirilgan (texnik) ishlari amalga oshirilishi, milliy va xalqaro to'lov tashkilotlari tizimida texnik uzilishlar) sabab Sharhnomalar shartlari amalga sohirish imkonii mavjud bo'limganda, Bank moddiy javobgarlikdan ozod qilinadi.
- 9.12.** Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi, agar Bank tomonidan, Bankning bank-korrespondentlari va boshqa banklar, kredit/moliya tashkilotlari tomonidan Foydalanuvchining topshirig'i ijrosi amalga oshirilmagan, to'xtatib qo'yilgan, muzlatilgan, bloklanganda va pul mablag'lari qaytarilmasligi yuzaga kelganda, va ushbu holatga quyidagilar sabab bo'lsa, ya'ni:
- a.** Foydalanuvchining pul mablag'lari o'tkazmasida ishtiroy etuvchi banklar yoki boshqa kredit-moliya tashkilotlarning ichki qoidalari va mahaliy qonunchiligiga asosan operatsiyalar taqiqlangan davlat (hududida) to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ishlatilishi maqsad qilingan bo'lsa;
 - b.** Foydalanuvchi ma'lumotlari yoki qabul qiluvchi (yuboruvchi) nomi, O'zbekiston Respublikasi maxsus tashkilotlari, xalqaro va/yoki xorijiy tashkilotlar tomonidan terroristik, ekstremistik va boshqa noqonuniy harakatlari bilan shug'ulanuvchilar ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa;
 - c.** O'zbekiston Respublikasi maxsus tashkilotlari, xalqaro va/yoki xorijiy tashkilotlar tomonidan terroristik, ekstremistik va boshqa noqonuniy harakatlari bilan shug'ulanuvchilar, shuningdek boshqa tasdiqlangan ro'yxatlarga kiritilgan tashkilotlar va/yoki jismoniy shaxlarning qo'lida yoki ta'siri ostida bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita nomidan va/yoki manfaatlari yo'lida harakat qiluvchi Foydalanuvchi va/yoki qabul qiluvchi (yuboruvchi) bo'lsa;
 - d.** Qabul qilivchi hisobraqami ochilgan bank va/yoki kredit/moliya tashkilotlari terroristik, ekstremistik yoki boshqa noqonuniy harakatlari amalga oshirish to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lganda, yoki ushbu tashkilotlari va/yoki jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi maxsus tashkilotlari, xalqaro va/yoki xorijiy tashkilotlar tomonidan terroristik,

- ekstremestik va boshqa noqonuniy harakatlar bilan shug'ulanuvchilar, shuningdek boshqa tasdiqlangan ro'yxatlarga kiritlgan bo'lsa;
- e. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xalqaro tashkilotlarning me'yoriy hujjatlari, Bankning xalqaro valyutadagi hisobraqamlari ochilgan bank-korespondentlari joylashgan xorijiy davlatlar qonunchiligini buzsa va/yoki buzilishiga olib kelsa.
- 9.13. O'zbekiston Respublikasi jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq Foydalanuvching pul mablag'lari yoki boshqa mulklari bilan bog'liq operatsiyalar to'xtatilsa, muzlatish (bloklash) choralarini qo'llash oqibatlari uchun Bank javobgar hisoblanmaydi.
- 9.14. Ushbu Ommaviy oferta bilan bog'liq nizolar tomonlar o'tasida muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal etiladi. Agar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkonи bo'lmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal etiladi.

SHAXSIY MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH

- 10.1. Ushbu bilan Foydalanuvchi mustaqil, o'z xohish-istagi va manfaatlari yo'lida Bankga noma'lum muddatga o'zining shaxsiy ma'lumotlaridan, Bank faoliyati uchun, Sharhnomada ko'rsatilgan shartlarni Bank tomonidan bajarilishi, shuningdek qonunga zid bo'lmagan boshqa maqsadlar yo'lida foydalanish va ishlov berishga cheklanmagan muddatga o'zining roziligidini beradi. Shuningdek, Foydalanuvchi ushbu Sharhnomani shartlari bajarish maqsadida Bank tomonidan shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etilishiga o'z rozilik beradi.
- 10.2. Har qanday ma'lumotlarni (shaxsiy va / yoki mijozning aloqa ma'lumotlar)ga ishlov berish avtomatlashtirish vositalari yordamida yoki ularsiz amalga oshiriladi, shu jumladan mazkur Sharhomaning imzolanishi munosabati bilan Bankka taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, toplash, saqlash, tushuntirish, foydalanish, tarqatish (jumladan Bakning hamkorlariga ham), egasizlantirish, cheklab qo'yish, yo'q qilish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish kiradi.
- 10.3. Mazkur Ommaviy ofertani akseptlash orqali Foydalanuvchi quyidagilarga o'z roziligidini beradi:
- 10.3.1. Bank tomonidan ro'yxatga olish paytida va bankka taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlardan Foydalanuvchi ushbu Sharhnomani doirasida xizmat ko'rsatish bilan bog'liq har qanday ma'lumotlar to'g'risida xabardor qilish uchun foydalanilishi;
- 10.3.2. Bank xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq reklama, tijorat va boshqa ma'lumotlarni (mobil telefon raqami, elektron pochta manzili va shaxsiy kabinet), shu jumladan bankning yangi xizmatlari va bankning qo'shma mahsulotlari va uchinchi shaxslar haqidagi ma'lumotlarni xabarnomalar yuborish orqali qabul qilish;
- 10.3.3. ushbu bandda ko'rsatilgan ma'lumotlarni Sharhnomani bajarish, shuningdek Sharhnomani bajarish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan boshqa maqsadlarda mablag'larni oluvchi plastik kartani chiqargan Bank-emitentga taqdim etish;
- 10.3.4. davlat soliq xizmati organi va boshqa organlarning ma'lumotlarga ishlov

- berish Markazidagi shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish (olish).
- 10.4.** Kredit mahsulotlarini taqdim etish uchun Bank Foydalanuvchiga va/yoki kreditlash ob'yektiga (zarurat bo'lganda) taalluqli bo'lgan barcha zarur axborotni (kredit hisoboti/kredit tarixi/axborot va boshqalar)ni kredit byurosi va boshqa tashkilotlar (muassasa, banklar)dan olish va/yoki uzatish huquqiga ega;
- 10.5.** Foydalanuvchi taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berilishi quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:
- 10.5.1.** Foydalanuvchini identifikasiyalash;
- 10.5.2.** Foydalanuvchi bilan tuzilgan kelishuv/Shartnomalar, shuningdek Bank hamkorlari bilan tuzilgan kelishuvlar doirasida olingan majburiyatlarni lozim darajada bajarish;
- 10.5.3.** Bank bilan tuzilgan kelishuv/Shartnomalar doirasida olingan majburiyatlarni Foydalanuvchi tomonidan lozim darajada bajarilishi;
- 10.5.4.** Foydalanuvchi bilan aloqaga chiqish, shuningdek mobil ilovadan foydalanish bilan bog'liq xabarnoma, so'rovnama va ma'lumotlar yo'llanishi;
- 10.5.5.** Bank tomonidan xizmat ko'rsatilishi, shuningdek Foydalanuvchidan olingan so'rovnama va buyurtmalarga ishlov berish, jumladan bunday so'rovnama va buyurtmalarni Bankning kontragent/hamkorlariga keyingi ijro uchun taqdim etilishi;
- 10.5.6.** Egasizlantirilgan ma'lumotlarga asosan statistik va boshqa tadqiqotlar o'tkazish;
- 10.5.7.** Bank tomonidan Hamkor/kontragentlar bilan birgalikda o'tkazilayotgan aksiyalarda ishtiroy etish takliflarini tarqatish va aksiyada ko'zda tutilgan sovg'a/mukofotlarni olish;
- 10.5.8.** Reklama-axborot materiallarini telefon, faksimilya, elektron pochta va boshqa to'g'ridan-to'g'ri aloqalardan foydalanish orqali tarqatish;
- 10.5.9.** mobil ilovadan foydalangan holda noqonuniy harakatlarni amalga oshirilishini oldini olish/bartaraf qilish;
- 10.5.10.** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa maqsadlar.

11. MAXFIY MA'LUMOTLARNI SIR SAQLASH VA XAVFSIZLIK CHORALARI

- 11.1.** Tomonlar ma'lumot va hujjatlarni xavfsizligi va himoya qilish bo'yicha barcha choralarini ko'rishga majburdirlar.
- 11.2.** Foydalanuvchi maxfiy ma'lumotlarni sir saqlash, uchinchi shaxslarning ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanishi va ma'lumotlarni ruxsatsiz olishlardan himoya qilish, shuningdek Foydalanuvchining mobil qurilmasi but saqlanishini ta'minlash uchun tegishli choralar ko'rishga majbur bo'lib, uning mobil telefoniga uchinchi shaxslar kirgan taqdirda bunga shaxsan javobgar bo'ladi.
- 11.3.** Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari maxfiydir. Bank mijozning shaxsiy ma'lumotlari hech bir asoslarsiz oshkor etilmasligi yoki tarqatilmasligini kafolatlaydi.
- 11.4.** Bank quyidagi hollarda Foydalanuvchi haqida ma'lumotlarni oshkor qilishi mumkin:
- a.** bunday axborot ommaviy hisoblansa;
- b.** Foydalanuvchining iltimosiga yoki ruxsati bilan oshkor qilinsa;
- c.** Bank ushbu Shartnomaga shartlarini bajarish uchun zarur bo'lgan miqdorda Bankning hamkorlariga taqdim etish zarurati bo'lsa;

- d. ushbu Shartnoma bo'yicha va Foydalanuchining Bank bilan tuzgan boshqa shartnomalari, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda oshkor etish talab qiladigan asoslar mavjudligida.
- 11.5.** Bank uchinchi shaxslar tomonidan yoki dasturlar va ilovalardan kelib chiqadigan tahdidlardan Foydalanuvchining ma'lumotlari va pul mablag'larini ximoya qilishni kafolatlaydi va tizimini yaxshilaydi. Shu o'rinda Foydalanuvchi "OFB mobile" mobil ilovasidan foydalanish jarayonida, uchinchi shaxslar mablag'lari va operatsiyalari bilan ma'lumotlarni saqlash va ehtiyoj choralarin ko'rishni o'z zimmasiga oladi.
- 11.6.** Agar Foydalanuvchi 5 (besh) daqiqa davomida faol bo'lmasa, Bank xavfsizlik nuqtai nazaridan tizim sessiyasini avtomatik ravishda to'xtatadi. Foydalanuvchi tizimda qayta autentifikatsiyadan o'tishi kerak bo'ladi.
- 11.7.** Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan taqdim etilgan Ro'yxatdagi shaxslarning bevosita yoki bilvosita bankka kirib kelishini samarali oldini olish hamda firibgarlik operatsiyalari amalga oshirilishini oldini olish maqsadida Identifikatsiyada o'tgan maqomdagи mobil ilova Foydalanuvchilariga faqatgina o'zlariga tegishli bo'lgan bank plastik kartalarini mobil ilovaga qo'shib foydalanishlariga ruxsat etiladi.
- 11.8.** Foydalanuvchi mobil ilovani o'zining mobil telefoniga (faqat Foydalanuvchining shaxsan o'zi foydalanishi mumkin bo'lgan telefon) o'rnatgandan so'ng va mobil ilovadan foydalanish davrida quyidagi xavsizlik choralarini ko'rishga majbur:
- 11.8.1.** Mobil ilovaga kirish uchun parol (raqamli, tasvirli kaliti, agar telefonda bunday imkoniyat bo'lsa - Touch-ID va Face-ID va boshqa) o'rnatish. Bu holda parol uchinchi shaxslar tomonidan tasodifiy terish natijasida mobil ilovaga kira olish imkoniyatini istisno qilishi kerak. Shuningdek uchun quyidagicha parollardan foydalanmaslik zarur:
- a. harflar va raqamlar oddiy ketma-ketligi (masalan, Abc123, Qwerty789, 1234, 5555 va hokazo);
 - b. telefon raqamlari va pasportlar; - yaqin qarindorshlarning tug'ilgan kunlari va ularning ismlari;
 - c. atrofdagi kompyuter, monitor, orgtexnika va sevimli kompaniyalar nomlari (masalan: Apple123, Toyota111).
- 11.8.2.** Parolni imkon qadar eslab qolish va uni telefonga (SMS, eslatma, telefon orqa tarafiga yozuv va boshqa ko'rinishda) yozib qo'ymaslik;
- 11.8.3.** Bankdan olingan ma'lumotlarni mobil telefonda SMS-xabarlar ko'rinishida saqlamaslik;
- 11.8.4.** Mobil telefon ko'zdan yiroq joyda turgan bo'lsa, mobil ilovani ochiq qoldirmaslik;
- 11.8.5.** Mobil telefonni ta'mirlashga berganda undan SIM-kartani chiqarib olish va SIM-kartani uchinchi shaxslarga qoldirmaslik. Chunki SIM-kartani nushalash mumkin, ya'ni Foydalanuvchining telefon raqamini olish va keyinchalik Foydalanuvchi nomidan mobil ilova orqali operasiyalarni bajarishingiz mumkin;
- 11.8.6.** E'tiborli va ziyrak bo'lish: firibgarlar ko'pincha o'zini Bank xodimlari sifatida tanishtiradi. Agar notanish shaxs qo'ng'iroq qilib, Foydalanuvchini qo'llab-quvvatlash xizmati mutaxassis sifatida tanishtirib, karta ma'lumotlarini yoki olingan SMS-xabardagi rekvizitlarini so'raganda darhol suhabatni to'xtatish va kartaning orqa tarafidagi telefon raqam orqali Bankka qo'ng'iroq qilish lozim;

- 11.8.7.** Bank xodimlari mijozlardan maxfiy ma'lumotlar: kartaning to'liq raqami, PIN va CVC kodlar va boshqalarni taqdim etishni hech qachon so'ramataydi. Agar bunday ma'lumotlar so'ralsa, qo'ng'iroq qilgan odam firiqgar bo'lishi mumkin. Bank xodimlari karta bilan faol operasiyalarni amalga oshirishni talab qilish, olingan SMS xabar bo'yicha ma'lumotlarni so'rashga haqli emas;
- 11.8.8.** SIM-karta shikastlanganda va/yoki almashtirilganda, SMS-xabar ulangan telefon raqami o'zgarganda, SMS-xabar xizmatini o'chirib qo'yish yoki avvalgi telefon raqamdan SMS -xabarni o'chirib, yangi telefon raqamiga ularash uchun Bankka qo'ng'iroq qilish lozim.

12.

KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

- 12.1.** Sharhnomalar bo'yicha Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilar harakatlarga ta'sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbul imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to'lovlarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita biron bir pul mablag'lari yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.
- 12.2.** Sharhnomalar bo'yicha Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilar amalda qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro xuquq talablarini buzadigan haraktlarni amalga oshirmaydilar, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar qilmaydilar.
- 12.3.** Sharhnomalar Tomonlarning har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqiqlanadi. Shu bilan birga, xodimni ma'lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta'minlash, xodim rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishi ta'qilqanadi.
- 12.4.** Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurash sharltarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og'zaki, shu jumladan, ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatini oladi.

13.

BOSHQA SHARTLAR

- 13.1.** Bank va Foydalanuvchi o'rtasidagi ushbu Ommaviy oferta/Shartnomada ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bankning ichki me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.
- 13.2.** Bank mobil ilova uchun yangilanishlarni chiqarish huquqiga ega va mijoz ushbu yangilanishlarni belgilangan tartibda o'rnatishi mumkin. Foydalanuvchi ushbu ommaviy taklifining shartlari va qoidalari mazkur yangilanishlar uchun tadbiq etilishiga rozilik beradi.
- 13.3.** Mazkur Sharhnomalar Foydalanuvchi tomonidan akseptlangan vaqt dan boshlab kuchga kiradi va nomuayyan muddat davomida amal qiladi.
- 13.4.** Ushbu Sharhnomalar xizmatdan foydalanish to'xtatilgan paytdan boshlab, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va ushbu ommaviy oferta/Shartnomada nazarda tutilgan asoslar bo'yicha tugatilgunga qadar bekor qilingan hisoblanadi.
- 13.5.** Bank mazkur Ommaviy oferta/Shartnomaga Foydalanuvchini elektron shaklda xabardor qilish orqali, unga bir tomonlama o'zgartirish kiritishga haqli.

- 13.6.** Bank Ommaviy oferta/Shartnomaga o'zgarishlar/qo'shimchalar kiritish to'g'risida Foydalanuvchini bunday o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritilishi rejalashtirilgan sanadan 5 (besh) kalendar kun oldin, elektron shaklda xabarnoma yuborishning majburiy tartibotiga amal qilgan holda, Bankning korporativ saytida www.ofb.uz. kiritilayotgan o'zgartirish/qo'shimchalar yohud Ommaviy-oferta/Shartnomaning yangi tahriri matnini joylashtirish yo'li bilan xabardor qiladi.
- 13.7.** Foydalanuvchining tizimga kirishi va mobil ilovadan foydalanishni davom ettirish/xizmatlardan foydalanishi Foydalanuvchi tizimga kirgan va mobil ilovadan foydalanish paytida amalda bo'lgan Ommaviy oferta/Shartnomani (o'zgarish va qo'shimchalar bilan) akseptlaganligini bildiradi.
- 13.8.** Bank ushbu ommaviy ofertani texnik, tashkiliy, huquqiy yoki boshqa sabablarga ko'ra noma'lum muddatga chaqirib olishga haqli, bunda Bank bunday chaqirib olishning sabablarini ko'rsatgan holda Foydalanuvchiga elektron xabar yo'llash orqali xabardor qiladi.

14.

BANKNING MANZILI VA REKVIZITLARI

"Orient Finans" Xususiy aksiyadorlik tijorat banki ("Orient Finans" XATB);
Yuridik manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Osiyo ko'chasi, 5-uy;
Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100052, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Osiyo ko'chasi, 5-uy;
Tel.: +998 71 205-55-55;
Bank Kontakt-markazi: 998 71 200 88 99.